



JAJJI YURAKDAGI ULKAN MATONAT

Hasanov Muhammadyusuf

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 1-umumta'lim maktabi 6-"G" sinf o'quvchisi

Matonat bu insonning o'ziga va o'z tamoyillariga sodiq qolgan holda qiyinchiliklar, sinovlar yoki bosimlarga bardosh bera olish xususiyati deb tushuniladi. Bu, odatda, qat'iyat, mardlik va jasorat bilan bog'liq bo'lib, inson o'z maqsadlari yo'lida duch kelayotgan turli to'siqlarni yengib o'tishda davom etadi. Matonatli insonlar o'z e'tiqod va qarashlariga sadoqatli qolish uchun qarshiliklarga qaramasdan ishonch, irada kuchini namoyish etadilar.

Matonatli odamlar, odatda, to'g'ri deb bilgan ishlarini davom ettirish uchun o'zlarining shaxsiy komfortlarini qurbon qilishga tayyor bo'lishadi va ko'pincha ijtimoiy adolat, inson huquqlari va boshqa muhim qadriyatlar uchun kurashda oldinga qadam tashlaydilar. Bunday insonlar jamoatchilik oldida ibrat bo'lib, boshqalarni ham turli sinovlar arafasida mardlik va sabr-toqat bilan harakat qilishga ilhomlantiradilar.

Bugun men ham hayotimda yillar davomida sodir bo'lgan voqealar, boshimdan kechirgan ayrim qiyinchiliklar hamda mashaqqatarimni sizlar bilan bo'lishishni istadim. Sababi hayotning menga bergan har kuni bir saboq, ne'mat ekanligi, bu hayotda yashar ekanman kundan kunga tobora teranroq his qilishimni anglab boryapman. Men hayotimdan, Yaratgan egam bergan taqdirdan roziman.

Bolaligimdan o'z oldinga qo'ygan maqsadlarim bo'lgan. O'sha maqsadlarim sari hamisha intilish va izlanishda bo'lganman. 5-yoshimda 3 ta tilning alifbosini yod olganman. 6-yoshimda esa uch tilda ham kitob o'qiy boshlagandim. Rus tili, ingliz tilida bemalol o'qir edim. Ingliz, rus tillarini o'qishni va yozishni bilsam-da, mazmuniga tushunmas edim. Shuning uchun lotin, krill yozuvidagi kitoblarni ko'proq o'qir edim. Do'konlarga ota - onam bilan birgalikda kirganimda ham hamma bolalar kabi o'yinchoq olmas, uning o'rniga kitob sotib olardim.

6 yoshimda tug'ilgan kunimga sovg'a olish uchun ota-onam bilan do'konga kirdik. Ota-onam birorta qimmatroq o'yinchoq tanlar deb o'ylashgan edi, shekilli, men esa o'yinchoqlar turadigan qatorga emas, kitoblar terilgan rastalar tomonga yugurdim. Kitoblarni titkilay ketdim, chunki onam ko'proq hajviy va qiziqarli kitoblarni tez-tez o'qib berar edilar. U kitoblar menda katta taassurot qoldirgan edi. Shuning uchun ham hajviy kitob axtara boshlardim. Bir kitob tanlab, ota-onamga: "Menga shu kitobni olib bering" - dedim. Ota-onam ham u kitobni olib berdi. Uyda mening tug'ilgan kunim uchun tayyorgarlik ko'rilar edi. Men esa bir burchakka o'tirib kitobni o'qib, qiqir - qiqir kular edim. Onam kelib: "O'g'lim bu nima qilganing hozir mehmonlar kelib qolishadi" - dedilar. Men esa parvo ham qilmasdim, o'sha kitobni ichiga kirib ketgandim, menga hozir shu kitobdan boshqa hech narsa qiziq emasdi.

Men 7 yoshga to'lib, maktabga bora boshladim. Bir kuni "Alifbe" bayrami bo'ldi. Tadbir boshlanguncha hamma ota-onalar sinf xonasida orqa o'rindiqda o'tirishar, bolalar esa birin-ketin yodlagan so'zlarini takrorlash uchun ustoz oldiga borishar edi.



Bir payt men ham takrorlash uchun chiqayotgan edim, bir sinfdosh qizcha: "To'xta bolakay, bu sening onangmi yoki buvingmi?" - dedi. Men esa: "Onam" - deb javob berdim -da, ustozimning oldiga chiqib ketdim. She'rlarimni takrorlagach, sahnadan orqa o'rindiqda o'tirgan hamma ota-onalarga bir qaradim-da, shundagina onamning aytgan so'zlari birin-ketin xayolimdan o'ta boshladi.

Onam har doim: "O'g'lim sen faqat yaxshi o'qishing kerak, chunki bizning umrimiz o'tyapti. Bizga bir narsa bo'lib qolsa, yaxshi o'qisang, bemalol noningni topib ketasan" - deb tez-tez takrorlar edi.

Sinfdoshim "Bu sening onangmi yoki buvingmi?" demagunicha ota-onamning yoshi kattaligini sezmagani ekanman. O'sha kundan boshlab yanada yaxshi o'qishga harakat qilar va astoydil o'qir edim. Onamning menga aytgan o'sha ta'sirli so'zlaridan keyin Hamisha a'lo baholarga o'qishga, kelgusida ota-onamga moddiy va ma'naviy yordam berishga ahd qildim. Doimo izlanishni odat qildim. Moddiy qiynchilklarga qaramasdan otamning: "Bu kunlar ham o'tadi"- degan so'zlariga ishonдим. Yosh bo'lsam-da, qalbmida chuqur ildiz otgan kattadan katta orzu maqsadlarim bor edi va men maqsadlarim sari ketishni tanladim. Moddiy jihatdan faqir bo'lsak-da, ma'naviy faqirlikning menga yaqin kelishiga aslo yo'l qo'ymadim. Ruhim va ichki olamimga bo'shliq, ma'no va mazmun yetishmasligidan uzoqda turdim. Hayotni hamisha chuqur his qilishga harakat qildim. O'z yo'limni topishga, o'z zimda ma'naviy boylik, mehr-oqibat, sevgi va muhabbat, do'stlik va sadoqat kabi insoniy tuyg'ularni shakllantirishga harakat qildim. Ma'naviy faqirlikdan qochdim desam ham bo'ladi. Chunki ma'naviy faqir insonlar boshqalardan yordam, qo'llab-quvvatlash yoki yo'naltirishni kam istaydilar va ba'zida jamiyatdan ajralib qolishadi. Bunday holatlar insonning rivojlanishi va jamiyatdagi o'z o'rnini topishida salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muammo o'z vaqtida aniqlanib, ma'naviy rivojlanish yo'llari izlansa, inson o'zining ma'naviy hayotini boyitishi va umumiy sifatini yaxshilashi mumkin.

Matonatli insonlar turli sohalarida topilishi mumkin – ular siyosatchilar, sportchilar, olimlar, harbiy xizmatchilar, fuqarolik huquqlari himoyachilari yoki oddiy fuqarolar bo'lishi mumkin. Men ham har kunimdan ibrat olib shunday inson bo'lishga harakat qilypman. Bunday shaxslar o'zida:

Sabr-toqat va bardoshlik – Matonatli insonlar qiyinchiliklarni sabr bilan qabul qilishadi va engib o'tish yo'llarini topishadi.

Qat'iyat va ishonch – Ularning maqsad va e'tiqodlariga bo'lgan ishonchi qat'iy bo'ladi va ular o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun qat'iy qaror qabul qilishadi.

Jahd – Matonat insonlari maqsadlarga erishish uchun jiddiy sa'y-harakat qilishadi va o'z kuchlarini ayamaydilar.

Mardlik – Ular o'z e'tiqod va qadriyatlarini uchun turishga tayyor bo'lib, qo'rqmasdan to'g'ri deb bilgan yo'llarini tutadilar.

Ijtimoiy mas'uliyat – Matonatli insonlar o'zlarining harakatlari jamoatchilik manfaatlari doirasida qanday ta'sir qilishini hisobga oladilar va ko'pincha boshqalarga yordam berish uchun o'zlarini bag'ishlaydilar.



O'z-o'zidan yetakchilik – Matonat ko'pincha o'zgartirish yoki yangilik yaratish kuchiga aylanadi. Shunday ekan, matonatli insonlar boshqalarga o'rnak bo'lib, ularning harakatlariga ilhom beradilar.

O'ylaymanki, insonda hamisha shunaqa insoniy fazilatlar, axloqiy ko'nikmalar bor ekan u inson hayotda qahramon. Zeroki, inson hamisha sinov va mashaqqatda toblanib tarbiyat topadi. Xalqimiz orasida men va men kabi yoshligidan hayot qozoniga otilgan murg'ak qalbli yoshlar talaygina. Bizning hayotimiz, najotimiz faqatgina, ilmida, ma'rifatda. Matonat bu qalbing-la hayotning barcha qiyinchiliklariga baralla jar solmog'ingdir. Imkonsizliklardan imkon topish- u, hayotga kulib boqishingdir. Chunki bu sening hayoting va sening imtixoningdir.